

## SUG'URTA KOMPANIYALARINING RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Jumaboyev Dilshodbek**

*Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti 2.73 guruh talabasi*

Jahon amaliyotida iqtisodiy xavf-xatarlarning globallashuvi va turli inqirozlarning vujudga kelishi natijasida milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga ta'siri davlatlarning mavjud moliya tizimi mexanizmini jumladan, sug'urta tizimi va sug'urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois dunyo mamlakatlarida va xalqaro munosabatlarda sug'urta xizmatlarisiz biror faoliyat amalga oshirilmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta xizmatlaridan to'plangan mablag'lar mamlakat yalpi ichki mahsulotining 8-12 foizni tashkil etmoqda. Xalqaro munosabatlarda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorlik darajasini namoyon etuvchi ko'rsatkichlardan biri bu yig'ilgan sug'urta mukofotlari bo'lib, ular yirik hajmdagi investitsiya mablag'larining to'planishiga imkoniyat yaratib berishi bilan baholanmoqda. Bu o'z navbatida sug'urta kompaniyalarining investitsiya qilishga bo'lgan imkoniyatini kengaytiradi va sug'urtalovchining moliyaviy barqarorlik darajasini mustahkamlaydi.

Sug'urta – bu ijtimoiy mexanizm bo'lib, ushbu mexanizm individlarga va tashkilotlarga turli ko'rinishdagi noxush holatlar natijasida hosil bo'lgan iqtisodiy yo'qotishlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga imkon yaratadi. Sug'urta vositasida kelajakda yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy qiymatdagi ma'lum noaniqliklarni aniqlikka almashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, sug'urta moliya-kredit tizimining qismi sifatida butun jamiyat va iqtisodiyotni barcha darajalarda barqarorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida amal qiladi. Shuning uchun xo'jalik sub'ektlarini turli kutilmagan hodisalardan ko'riladigan zararlardan himoya qilishda sug'urta borgan sari muhim o'rin tutib bormoqda.

Ma'lumki, sug'urta fondlari to'rt ko'rinishda tashkil etiladi, bular:

- davlat mablag'lari hisobidan natural va pul ko'rinishida tashkil etiladigan markazlashgan sug'urta fondlari;
- har qanday fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan tashkil etiladigan natural yoki pul ko'rinishidagi sug'urta fondlari;
- fuqarolar va yuridik shaxslarning ixtiyoriy kelishuvlari asosida tashkil etiladigan o'zaro sug'urtalash jamiyatlarning pul ko'rinishida (ba'zi holatlarda natural ko'rinishda) tashkil etiladigan sug'urta fondlari;
- tijorat asosida tashkil etilgan sug'urta kompaniyalarining pul ko'rinishidagi sug'urta fondlari.

Markazlashgan davlat sug'urta fondlari yirik hajmdagi katastrofik hodisalar yuz berganda ko'riladigan zararlarni qoplash maqsadida tashkil etiladi. Ammo bu mablag'lar har doim ham zararlarni qoplashga yetarli bo'lmaydi. Fuqaro va yuridik shaxs tomonidan o'z faoliyati bilan bog'liq xavf-xatarlarni ko'zda tutgan holda tashkil

etiladigan natural yoki pul ko'rinishidagi sug'urta fondi faqatgina kichik hajmdagi zararlarni qoplash imkoniyatiga ega.

Sug'urta moliya kategoriyasining qismi sifatida e'tirof etilsada, u o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

sug'urtaning mulkning pul shaklidagi ehtimoliy harakati bilan bog'liqligi. Ya'ni, iqtisodiy sub'ektlarning sug'urtalangan mulkiga nisbatan kutilmagan hodisalarning yuz berishi natijasida zarar yetganda pulli qayta taqsimlash munosabatlarining yuzaga kelishi;

sug'urta uchun zararni taqsimlashning chegaralanganlik xususiyati xos. Ya'ni sug'urta munosabatlarida ishtirok etayotganlarning ichidagi zarar ko'rganlarning zarari jami ishtirokchilar o'rtasida teng taqsimlanishi;

sug'urtaning ma'lum doiradagi harakati – ma'lum hudud va vaqt doirasida. Sug'urtaning ehtimollik tabiati nisbatan katta hududda va ko'p sondagi sug'urta ob'ektlarida amal qilish zaruratini va sug'urta to'lovlarining bir qismini ma'lum yil oralig'i uchun zahiralashtirish zaruratini keltirib chiqaradi;

sug'urta fondiga yo'naltirilgan mablag'larning qaytarilish xususiyatining mavjudligi. Sug'urtadagi bu o'ziga xoslik sug'urtada amal qiluvchi ekvivalentlikning quyidagi bazaviy prinsipi bilan bog'liq: sug'urta tushumlari summasi sug'urta qoplamalari va sug'urta tashkiloti xarajatlariga teng. Sug'urtaga qabul qilingan mablag'larning qaytarilish xususiyati kredit kategoriyasi bilan o'xshash bo'lganligi uning faqat moliya kategoriyasi emas, balki kredit kategoriyasi ham ekanligini bildiradi.

“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonun hamda olimlar tomonidan berilgan, sug'urtaning mohiyatini ochib beruvchi ta'riflardan kelib chiqqan holda sug'urtaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: sug'urta – maqsadli pul fondlarini shakllantirish va insonlar hamda iqtisodiy sub'ektlar faoliyati bilan bog'liq ma'lum hodisalar (sug'urta hodisalari) yuz berganda ularning mulkiy manfaatlarini himoya qilish uchun ishlatish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Sug'urtaning funksiyasi sug'urtaning iqtisodiy mohiyatiga mos keladi va uning namoyon bo'lishining tashqi shakli hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, ular sug'urtaning o'ziga xosliklarini moliyaviy tizimning zvenosi sifatida namoyon bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Moliyaning taqsimlash funksiyasi sug'urtaning alohida holatida quyidagi funksiyalarda namoyon bo'ladi:

1) sug'urtaning stabillashtiruvchi (riskli) funksiyasi asosiy funktsiya bo'lib, sug'urtaning mohiyatini aks ettiradi. Bunda iqtisodiy sub'ektlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularning tavakkalchiliklari qayta taqsimlanadi. Bu bilan sug'urta butun iqtisodiy tizimning dinamik stabilligini ta'minlaydi;

2) ogohlantiruvchi funktsiya sug'urta fondining bir qismi hisobidan sug'urta risklarining yuz berish ehtimolligini kamaytirish tadbirlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi;

3) omonat funksiyasi hayot sug'urtasida amal qilib, bunda sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari omonat sifatida to'planadi.

Moliyaning nazorat funksiyasi sug'urtaning shunga mos quyidagi funksiyalarida namoyon bo'ladi:

4) sug'urtaning nazorat funksiyasi sug'urta fondini shakllantirish hamda undan foydalanish maqsadida dasturlar, aktuar hisoblarning metodikalarini ishlab chiqishda, prognozlar qilishda, fondan foydalanish natijalarini baholashda amal qiladi. Nazorat funksiyasi sug'urtaning barcha zvenolari vositasida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish jarayonlariga aralashuv bilan bog'liq moliyaning tartibga soluvchi funksiyasi sug'urtaning maxsus funksiyasi sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

5) sug'urtaning tartibga soluvchi funksiyasi vaqtinchalik bo'sh bo'lgan sug'urta fondini investitsiyaga yo'naltirish hisobidan ishlab chiqarish sohasining uzluksizligini va balanslashuvini ta'minlashda va ijtimoiy sug'urta shaklida fuqarolarni ijtimoiy himoyalashda qo'llaniladi.

Sug'urta insoniyat faoliyatida yuzaga keladigan turli ko'rinishdagi xavf-xatarlarning doimiy mavjudligi tufayli zaruriyatga aylangan va shu sababli u juda qadim zamonlardan beri turli ko'rinishda shakllanib insonning doimiy hamkoriga aylanib kelgan. Dastlabki sug'urta fondlari natural ko'rinishda va faqat hodisa yuz bergandan keyingina a'zolar tomonidan to'planib, a'zolarining ko'rgan zararlari qoplab berilgan. Keyinchalik, tovar-pul munosabatlari shakllangandan keyin XIV asrdan boshlab tijoratga asoslangan, sug'urta fondi pul ko'rinishida oldindan shakllantiriladigan sug'urta tashkilotlari paydo bo'la boshlagan. Bunday tashkilotlarning keng taraqqiy qilishi XVIII asrga kelib yuz bergan. Natijada bunday tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligi masalasi dolzarblik kasb etgan va ushbu masala bugungi kunda ham sug'urta bozorlaridagi muhim mazulardan biri hisoblanadi.